

баҳасының жоқлығына налыў сезимлери төмендеги қатарларда аңласылады.

Қой емеспен, қассапларға сатпаға,

Қус емеспен мерген гөзлеп атпаға [1:30] т.б.

Мысалдан көринип турғанындай, адамға қус яки хайўанларға исленген қатнастай емес, ал адамдай қатнас жасалыўы кереклиги хақында көзқарас бериледи. Бул қатарлар қызлардың сана-сезими, ой-пикири тереңлескенін көрсетеди.

Ұлыўма шаңарақларда өткерилетуғын той дәстүрлеріндеги қәлиплескен қатаң дәстүр, яғный тойдан алдын қызды айттырып барыў, куда түсиў, куда болыў, қалың мал бериў, қалың малды алыў, той бериў, қудаларды шақырыў, мал сойып күтиў, сарпайлаў хәм т.б. елдің дәстүрлери болған. Лекин, хаял-қызларға болған қатнас, феодаллық мүнәсибеттеги көзқарастың көринислери сынсыў қосықларының мазмунында сақланып қалғанлығын жоқарыдағы мысалдан айқын көреміз.

Лирик қахарман қызылық дәўиринен айрылып, басына турмыс, хожалық машқаласының түскенлигин анық баянлайды.

Хәйўаншада отырсам,

Торпақ түсти басыма,

Әйне он төрт жасымда,

Руўзыгер түсти басыма [1:24].

Өз үйиниң «патшасы болып» енди ер жетип, киятырған қыздың мойнына он төрт жасынан баслап шаңарақ машқаласы түскенин баянлаған жоқарыдағы қатарларда, қыздың кеўил-кеширмеси образлы түрде сүўретлеп бериледи. «Хәйўанша» қыздың өз үйи, еминеркин жайнап-жаснап өсип киятырған шаңарағы, ал басына «торпақ» түсиўи турмыс руўзыгершилиги, үй машқаласы мойнына түскенлигин аңлатады.

Сынсыў қосықларының мазмунында лирик қахарманның ишки наласы, жүректен шыққан сезимлери кескин хәм өткір сөзлер менен баянланады. Мысалы:

Мал берген адамды ярым демеспен,

Мал алған әкеме ырза емеспен,

#### Әдебиятлар

1. Қарақалпақ дәстүр қосықлары (Дүзиўшилер: Қ.Мақсетов, К.Палымбетов). – Нөкис: «Билим», 1997.
2. Пирназаров А. Өмар шайырдың өмири хәм творчествосы. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1978.
3. Наўрыз Жапақов. Еске түсириўлер. Илимий мийнетлер. – Нөкис: «Билим», 1990.

**РЕЗЮМЕ.** Мақолада қарақалпақ халқ маросим кұшиқларининг бири «сынсыў» хақида сўз боради. Мазкур кұшиқларининг мазмунда узатилаётган кизнинг ички кечирмалари, хис-туйғуларининг акс еттирилиши мисоллар ёрдамида тахлил қилинган.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается одна из каракалпакских народных обрядовых песен «Сынсу». На примерах анализируется содержание этих песен, отражающих внутренние переживания и эмоции поэмой девушки.

**SUMMARY.** The article discusses one of the Karakalpak folk ritual songs, "Sinsiw". The content of these songs, which reflect the inner feelings and emotions of the girl being sung, is analyzed using examples.

#### BOLALAR ADABIYOTIDA ESTETIK TAFAKKUR VA BADIY IFODA

**Y.Sh.Raximbayeva** – *assistent o'qituvchi*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch soʻzlar:** bolalar adabiyoti, sheʼriyat, ruhiyat tasviri, lirik qahramon, estetik tafakkur, ijtimoiy-psixologik asos.

**Ключевые слова:** детская литература, поэзия, изображение психики, лирический герой, эстетическое мышление, социально-психологическая основа.

**Key words:** children's literature, poetry, depiction of the psyche, lyrical hero, aesthetic thinking, socio-psychological basis.

Bolalar uchun yaratilgan asarlar turli yosh xususiyatlarining inobatga olinishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar adabiyotiga baʼzan sodda badiiy ifodalar

Бул дўньяға еки айланып келмеспен,  
Ғәрип анам ақ жүзиңди көрмеспен.

\*\*\*

Залым ағам кете бер деп коймады,

Ғәрип анам дийдарыма тоймады,

Анама айтып бар қаўын қақласын,

Қақлаған қаўынын үш ай сақласын

Үш айға шекем бир хабарым болмаса,

Анам мени айтып-айтып жоқласын [1:26-31].

Сынсыў қосықлары дәўир хақыйқатлығын реалист-лик пенен шынлық көзқарасынан баянлаған халық мийрасы есапланады. Себеби, сынсыў қосықларының айырымларының мазмунына қарағанда қызлардың сана-сезиминиң өсип қорлыққа, ериксизликке, бассыныўшылыққа қарсы бас көтере баслағанлығы да көринеди. Бул пикиримизди илимпаз Н.Жапақовтың: «Көп қосықлардан үстем класс ўәкиллери, аўыл кәтқудалары ислам дининиң жолын, халықтың салт-әдет үрпін бетке перде етип тутып, хаял-қызларды ериксиз сатыў, сатып алыў буйымы ретинде көргени сезиледи. Бирақ соның менен бирге, бир қатар қосықлардан бундай үрп-әдеттиң тозыўы жеткени, қызлардың адамгершилиқ ушын бас көтере баслағаны, адам деген бийик атты қорлап, ериксиз қулдай өмир сүргеннен, сүймеген адамға таза денени кирлеткеннен өлип кеткенди жақсы көриўшилиқ сезимлери аңланады. Өлип кетиўшилиқ – өмирден үмйтсизлик емес, әдалатсызлыққа наразылықтың соңғы шеги ретинде көрсетилмекте. Бундай мотивлердің класслық гүрес сезимлери менен ушласқаны мәлим» [3:319], – деп жазды.

**Жуўмақ.** Жуўмақлап айтқанда, өткен дәўирлерде қыз узатыў тойында айтылған сынсыў қосықлары халықтың тарийхы, этнографиясы, әсиресе хаял-қызлардың тәғдири, турмысы хақында мағлыўмат беретугын терең идеяға хәм мазмунға ийе, социаллық жәмийетлик мәселелерди сәўлелендиретуғын фольклор мийрасы есапланады.

shu xususiyatlari, soʻz va badiiy ifodaning estetik jozibasi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, bolalar muayyan bir asarni oʻqishda, yod olishda qiynalmasliklari lozim. Qolaversa, bolalar adabiyoti, soʻz – obraz – gʻoya muammosi oʻta aniqlik va yosh kitobxon koʻz oʻngida yaqqol namoyon boʻladigan tarzda ifodalanishi lozim. Shu bilan bir qatorda, bolalar uchun yaratilgan asarlar hech qachon shunchaki, voqealardangina iborat asarlarni taqdim qilmasligimiz lozim. Sababi, “adabiyotning boshlanmasi va umum kitobxonlikning ostonasi hisoblanuvchi” [1:28] bolalar adabiyoti buni maʼnan qabul qilmaydi.

Insoniyat evolyutsiyasi davrlarida ham badiiy adabiyotning muhim tarbiya vositasi sifatida tan olingani bolalar adabiyotining ham qay darajada millat maʼnaviyati va taraqqiyotida muhim vosita ekanligini anglatadi. Oʻzbek bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari jahon bolalar adabiyoti bilan uzviy bogʻliq. Bolalar adabiyotining turli qirralarini tadqiq qilib kelayotgan, adabiyotshunos olim, professor R.Barakayev taʼkidlaganidek, “Yer yuzida dastlabki ota-onaning birinchi farzandi dunyoga kelishi bilan bolalar adabiyoti ham maydonga kelishi inkor qilib boʻlmas haqiqatdir. Chunki, bolalar adabiyotining asosiy vazifasi oʻsib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash manfaatlariga qaratilgandir. Binobarin, bolalar adabiyoti namunasi yosh avlodni ilm-maʼrifat nuridan bahramand boʻlishga chorlaydimi, kasb-hunar oʻrganishga chaqiradimi, eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladimi, bulardan qatʼiy nazar, uning bosh vazifasi farzandlarimizni maʼnaviy-axloqiy kamolot ruhida tarbiyalashdir” [3:28].

Shu maʼnoda, istiqlol davri oʻzbek bolalar adabiyoti, xususan, sheʼriyatida qiziqarlii syujet, rang-barang obrazlarga boy, bolalar psixologiyasi va yosh xususiyatlariga muvofiq yaratilgan ijod namunalari yetarlicha topiladi. Aynan shu mezonlar asosida barakali ijod qilib kelayotgan Abdurahmon Akbarning “Uyquchining sheʼrlari” sheʼriy toʻplamida jajji lirik qahramon Shuhratjon “Bir daftar savol” tuzib, ularni “Bekatta tugʻilgan savollar”, “Yoʻlda tugʻilgan savollar”, “Maktabda tugʻilgan savollar”, “Uyda tugʻilgan savollar” singari guruhlariga ajratadi. “Gulzor” deb nomlangan bekat atrofiga nega gul oʻsmasligi, bobosining bobosi kim boʻlganini, oʻzbek – oʻziga bek deganimi kabi xayollar yosh qahramonning mushohada yuritishga undaydi. Shu tariqa yosh Shuhratjon kattalar kabi mavjud voqelik bilan munosabatga kirishgan holda oʻz kelajagini taraqqiy etayotgan yurt, jamiyat bilan uygʻunlikda tasavvur qila boshlaydi.

Bundan tashqari, shoirning “Sinfoshim” sheʼrida ulgʻaygan sari bolalarning oʻz faoliyatiga doir oʻyinqaroq boʻlishi, oʻz hayotlarining turli jabhalaridan zavq-shavq tuyishi oʻziga xos tasvirlarda badiiy talqin qilinadi:

Bir qatorda partamiz,  
Har kun doska artamiz,  
Qoldi deguncha yolgʻiz,  
Sochin oʻynab oʻtirar [1:7].

Mazkur satrlarda oʻsmirlikka qadam qoʻyayotgan bolaning, sinfdosh qiz xatti-harakatlarini kuzatgan holda, unga munosabat bildirishi ularga begʻuborlik fonida ifodalangan. Zero, adabiyotshunos N.Ochilov taʼkidlaganidek: “Bolalar va oʻsmirlarga bagʻishlangan asarlarga qoʻyiladigan talab syujetning qiziqarliligi, hayotiyiligi va xilma-xil obrazlarga boyligini taqozo etishi,

bunday asarlar bolalarga estetik zavq berishi bilan bir qatorda, ularning tabiat hodisalari va kishilar oʻrtasidagi munosabatlarni chuqur anglashga, hayotiy hodisalarini his etishga oʻrgatishi tahlilga tortiladi” [6:12]. Shunday ekan, yuqoridagi sheʼrda lirik qahramon sinfdosh qizning shoʻxligi-yu, kulgulari, gapga chechanligi, uning oʻyga tolga vaqtlarida sochlarini oʻynab oʻtirishi kabi xatti-harakatlarining oʻziga yarashganligini ilgʻayotgani oʻsmir qalbida nomaʼlum bir tuygʻu vujudga kelayotgani shoir mahorat bilan ifodalaydi. Buni oʻz navbatida, yosh qahramonning bolalarga xos boʻlgan oʻz hissiyotlaridan uyalish, kuzatilayotgan qizning kimligini toʻgʻridan-toʻgʻri oshkor qilmasdan (ushbu holat sheʼrda topishmoq shaklida keltirilgan) oʻzida uyalish hissini tuyishi kabi holatlar tasvirida yaqqol anglash mumkin.

Koʻnglimda yoʻq hech kirim,  
Sinfoshim – shirin sirim.  
Bilsangiz ayting, u kim?  
Sochin oʻynab oʻtirar... [1:7].

Taʼkidlash kerakki, bolalar adabiyoti nafaqat insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, balki oʻquvchida estetik didni shakllantirish, ularni yuksak tafakkur sohibi boʻlib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “Adabiyot, jumladan, bolalar adabiyoti ham muhim tarbiyaviy-maʼrifiy ahamiyatga ega boʻlishi kerak. Biroq bu hol uning sanʼat sifatidagi xususiyatlariga daxl etmasligi shart. Boshqacha aytganda, faqat maʼrifiy ahamiyatgagina emas, shu bilan birga, hatto eng avvalo muhim estetik qimmatga ham ega boʻlishi kerak... Vaholanki, badiiylik umumadabiyotning uzviy qismi hisoblanmish bolalar adabiyotining ham yetakchi xususiyati, asosiy shartidir” [8:6-7].

Mazkur maqsadlarni badiiy ifodalashda ijodkorlar turli mavzularga murojaat qilishga toʻgʻri keladi. Abdurahmon Akbar sheʼriyati ham mavzuvii rang-baranglik kasb etgan holda jumladan, shoirning “Qayerdasiz, doʻstlarim” sheʼrida lirik qahramonning orzusidagi koptogi yoʻq vaqtlarda doʻstlari koʻp boʻlgani, orzusiga erishganda esa ulardan birontasi qolmaganidan oʻksinishi oʻquvchini teran mushohadaga chorlaydi.

Maʼlumki, inson umri davomida baxt tushunchasiga turlicha munosabatda boʻladi. Odatda, inson orzu qilgan narsasiga erishishi baxtning bir koʻrinishi sifatida eʼtirof etiladi. “Qayerdasiz, doʻstlarim” sheʼri qahramoni uchun oddiy koptogi boʻlishi oʻzining koʻngli toʻlishi uchun yetarli edi. Lekin, undagi bu quvonch koʻpga choʻzilmaydi, balki unda shodlikni boʻlishadigan doʻstlari yoʻqolganidan afsuslanish ruhi seziladi. Shoir doʻstlik aloqalarining oʻziga xos qoidalari borligi, bular gohida bolalik, tajribasizlik tufayli eʼtibordan chetda qolib ketishi haqida ogohlantirayotganday goʻyo:

Mening orzu qilganim  
Bittagina toʻp edi.  
Bugun esa ikkita  
Koptogim bor,  
koʻnglim toʻq.  
Oʻynay desam negadir  
Birorta ham doʻstim yoʻq... [1:11]

Sheʼrni oʻqish jarayonida doʻstlarni yoʻqotish sabablari xususida qator savollar tugʻiladiki, oʻquvchi ularni oʻz idrokidan oʻtkazishga majbur boʻladi. Odatda, yosh bolalarga xos maqtanchoqlik, qizgʻanchilik, chiroyli koptogi borligidan manmanlik hissi uygʻongandir. Eng asosiysi, sheʼr satrlariga sinchkovlik bilan qaralsa, sabab –

oqibat – natija omili aniq anglashiladi. Zero, lirik qahramon xayolidan kechgan **“Koptogim yo‘q paytlari”, “O‘rtoqlarim ko‘p edi”** satrlari ifodasida chuqur mazmun aks ettirilgan. She‘r mazmunida lirik qahramon do‘stlari undan voz kechgani emas, aksincha, uning o‘zi do‘stlari qatori hamma ishni o‘z vaqtida bajarishga e‘tibor qaratish o‘rniga faqat koptok bilan ovora bo‘lib qolayotgani mohirona ifodalangan.

Professor, M.Jumaboyev ta‘biri bilan aytganda **“Bolalar dunyoni o‘zgacha tasavvur qiladi, o‘zgacha ifodalaydi. Kattalar uchun oddiy tuyulgan narsalar ular ko‘z o‘ngida fojiali ko‘rinishi, kattalar uchun og‘riqli va armonli tuyulgan yechilmas masalalar esa ular nazarida oddiy, yechimini topishi qiyin emas”** [6:221]. Buni bola tilidan ifodalash uchun ijodkordan sinchkovlik, bolalarga xos beg‘uborlik, soddalik, qiziquvchanlik, intiluvchanlik kabi xususiyatlarni kuzatishi lozim bo‘ladi.

Abdurahmon Akbar ijodida lirik kayfiyatni va yosh qahramon kechinmalari orqali ifodalashdagi o‘ziga xos ijodiy uslubni kuzatish mumkin. Xususan, shoirning **“Dadamning ko‘zyoshlari”** she‘rida lirik qahramon dadasining ko‘zyoshlarini ko‘rib ich-ichidan unga rahmi keladi. She‘rni o‘qish jarayonida dastlab shoir yosh bolaning his qilish murakkab bo‘lgan ruhiy jarayon qalamga olgan degan fikr paydo qiladi. Chunki, otalar o‘z farzandi oldida ko‘z yoshlarini ko‘rsatib yig‘lashi nomutanosib ifodadek tuyuladi. Lekin, shoirning topqirligi, badiiy mahoratidan anglashiladiki, bolakayni tashvishga solgan bu hodisa o‘quvchini xavotirga solgan holatni vujudga keltirmaydi.

Har kuni yig‘laydi dadam bechora,  
Ko‘zyoshlarin ko‘rib keladi rahmim.

Boshida oq qalpoq, qo‘lida pichoq,

Tovushin chiqarmay yig‘laydi dadam [1:26].

Ota ko‘zga yosh oladigan darajada qanday muammo borligi o‘quvchiga o‘ziga xos jumboq tarzida ifodalanishi va savolning javobi she‘r yakunida kelishi shoirning qahramon boshidan o‘tkazayotgan ruhiy kechinmalarini yaqqol ifodalashi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Har kuni shu ahvol: kichik guzarda

Sahardan kechgacha arimas odam.

Ularga: – Osh bo‘sin, kelib turing, – deb,

Manzirat qilishdan charchamas dadam.

Dadam – zot somsapaz, gapning ochig‘i,

Ko‘zin yoshlarida shukr yashirin.

Yopgan somsalari kabobdan xushbo‘y,

Yopgan somsalari asaldan shirin! [1:26]

Ko‘rinadiki, **“Bolalar olamida mayda va ahamiyatsiz narsalar uchramaydi, ya‘ni kattalar mutlaqo ahamiyat bermaydigan, ular uchun ahamiyatsizdek ko‘ringan narsalar bolalar nazarida o‘zgacha ajib bir qiyofada jonlanadi.”** [6:225] Abdurahmon Akbarning **“Hakka”** she‘rida yosh bolakay hakkaga tarog‘ini, ko‘zguni, sovunni iniga tashiganligini aytib ranjiganda, hakka bunga javoban uni o‘g‘riga chiqarib, ranjimasligini, **“men ham sochimni tarasam degandim, umrimda bir bor, cho‘milsam degandim, odamga o‘xshab”**, degan javob orqali bergani bolalar tasavvurining ham nihoyat keng ekanligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoirining **“O‘g‘rigina hakkajon”** she‘rini **“Hakka”** she‘rining mantiqiy davomi deyish mumkin. Unda tasvirlanishicha, hakka bog‘dagi olma, uzumlarni iniga tashib ketgani, lekin yong‘oqni nega olganligini tushunmayotganini aytadi, bunda shoir bolaning hakkaga berilgan savoli mazmuni aslida biz kattalar unchalik e‘tibor qaratmaydigan, tabiatda bo‘layotgan hodisalar bola nazari-da jumboq sifatida qaraladi.

O‘g‘rigina bo‘lsang ham

Menga biroz yoqasan.

Ayt, hakkajon, yong‘oqni

Tishsiz qanday chaqasan? [1:33].

Darhaqiqat, bolalar tabiatan shirin so‘zga, erkalashlarga moyil bo‘lishadi. She‘rdagi **“o‘g‘rigina”**, **“hakkajon”** kabi erkalashlar, kechinmalar ifodasida shakl va mazmun mutanosibligini ta‘minlashga erishilgan. Bu o‘z navbatida kichik yoshdagi o‘quvchida badiiy emotsional ta‘sirning oshishiga xizmat qiladi. Shu ma’noda shoir Abdurahmon Akbar she‘riyatida bolalar fe‘l-faoliyati o‘zining samimiyati, beg‘uborligi, umuman butun murakkabligi bilan namoyon bo‘ladi. Shoir bolalar olamining har kuni quvonchlarga, mo‘jizalarga to‘la, ular hayotning, tabiatning har bir o‘zgarishidan o‘zgacha zavq-u shavq olishini o‘ta nozik va asosli badiiy talqin qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Abdurahmon A. G‘aroyib avtobus. – Toshkent: «O‘qituvch», 2012.
2. Abdurahmon A. Uyquchining tushlari. – Toshkent: «Sharq», 2006.
3. Barakayev R. Istiqloq davri o‘zbek bolalar she‘riyatining ba‘zi o‘ziga xosliklari. Uluslararası Başarı Bilimler ve sanat dergisi. – Turk dergisi 2021, 2 (1). <http://trkdergisi.com/index.php/trk/article/view/25>
4. Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: “Fan”, 1991.
5. Jumaboyev M. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.
6. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: «O‘qituvchi», 2016.
7. Ochilov N. Boshlang‘ich ta‘limda bolalar adabiyoti. – Toshkent: «Lesson press», 2021.
8. Ражабов Д. 80-йиллар ўзбек болалар шеърлятида поэтик маҳоратнинг айрим масалалари: Филол. фан. номз... дисс... – Тошкент: 1995. 6-7-б.

**REZYUME.** Maqolada o‘zbek bolalar adabiyoti vakili Abdurahmon Akbar ijodida estetik tafakkur va uning ijtimoiy-psixologik asoslari hamda badiiy ifodasi masalasi tadqiq qilinadi. Shuningdek, shoir she‘riyatida bolalarga xos tafakkur va tuyg‘ularning badiiy talqin qilinishi aniq misollar asosida ilmiy-nazariy tahlil qilinadi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается проблема эстетического мышления, его социально-психологические основы и художественное воплощение в творчестве Абдурахмона Акбара, представителя узбекской детской литературы. Также на конкретных примерах научно и теоретически анализируется художественная интерпретация детских мыслей и чувств в поэзии поэта.

**SUMMARY.** The article examines the problem of aesthetic thinking, its socio-psychological foundations and artistic embodiment in the works of Abdurakhmon Akbar, a representative of Uzbek children's literature. Also, using specific examples, the artistic interpretation of children's thoughts and feelings in the poet's poetry is scientifically and theoretically analyzed.